XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-74-135-11-161-K/23 O‘zbekiston tuman hokimligi

O‘zbekiston tumani hududidagi Madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta nomlash masalalarini tuman hokimi huzuridagi toponomik ob’ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiyasi xulosalarni tasdiqlash to‘g‘risida

Tumandagi nomsiz madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta nomlash masalalarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi. Mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan ko‘chalarni qayta nomlash hamda tumandagi mavjud madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida xulosalar taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 41-son, 448-modda; 2017 y., 35-son, 914-modda)*ga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli Qarori *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012y.,41-42-son,483-modda; 2016 y., 17-son, 176-modda,42-son,490-modda;2017y,30-son,733-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,01.06.2018y., 09/18/400/1289-son)*ga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.03.2014 yil kungi “SHaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizom *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 10-son, 107-modda; 2017 y., 35-son, 931-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2019 y., 09/19/302/2924-son)*ga muvofiq tuman komissiyasi takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi

Qonuni*(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda)*ning 24-moddasi hamda O‘zbekiston tuman hokimi huzuridagi toponomik ob’ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiyasining 2023 yil 25 apreldagi 01-14/122-sonli bayoni qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023 yil 13-iyul kungi 08727-sonli Ekspert xulosasiga asosan Xalq deputatlari O‘zbekiston tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston tumani hududidagi nomsiz madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini tiklash yuzasidan hamda madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini tasdiqlash bo‘yicha Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni nomini o‘zgartirish bo‘yicha Farg‘ona viloyati hamda tuman komissiyalarining 2023 yil 25 apreldagi 01-14/122-sonli xulosalari tasdiqlansin.

2.O‘zbekiston tumani hududidagi nomsiz madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini tiklash bo‘yicha tuman hokimi huzuridagi toponomik ob’ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiyasining 2023 yil 25 apreldagi 01-14/122-sonli bayoni qaroriga asoslanib madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta nomlash to‘g‘risidagi tuman hududiy komissiyasining takliflariga asosan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023 yil 13-iyul kungi 08727-sonli Ekspert xulosasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman hududiy komissiyasi (I.Mamajonov), tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘I (S.Abdullaev), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (E.Bozarov) bir oy muddatda:

Madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta nomlanishi munosabati bilan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan barcha ishlar (geografik nom ko‘rsatkichlarining almashtirilishi, hududlardagi fuqarolar pasportlariga, muassasa, korxona va tashkilotlar ish qog‘ozlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, barcha geografik nom ko‘rsatkichlari, ish hujjatlari “Davlat tili haqida”gi Qonun va boshqa rasmiy hujjatlar mosligini va boshqa ishlar)ning bajarilishini ta’minlasin.

4. Tuman statistika bo‘limi (J.Madrahimov) 2 hafta muddatda qayta

nomlangan mahallani statistik ko‘rsatkichlariga belgilangan tartibda zaruriy o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta`minlash masalalari bo`yicha ” doimiy komissiyasi (A.Imomov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Ш.Юлдашев**

Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-74-135-11-161-K/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston tumani bo‘yicha nomi Davlat reyestri bazasida mavjud bo‘lmagan madaniyat va istiroxat bog‘i hamda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarini nomlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	Geografik obektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Bog‘	**O‘zbekiston tumani**	Nomsiz bog‘	Alisher Navoiy nomli “Madaniyat va istiroxat bog‘i”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Mahalla	O‘zbekiston tumani	Karimobod	**Karimdevona**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Mahalla	O‘zbekiston tumani	Mevazor	**Oyimchaqaqir**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Mahalla	O‘zbekiston tumani	Darveshobod	**Bunyodkor Birdamlik O‘zbekiston**	Takliflardan **Bunyodkor** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.